

1-SINFLARDA ARIFMETIK AMALLAR YECHISH METODIKASI

Erkinova Odinaxon Kozimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Matematika va informatika yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursga geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi. Boshlang'ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo'lib hisoblanadi. 1 -sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi.

Kalit so'zlar Boshlang'ich sinf, ta'lim jarayoni, matematika o'qitish, metodika, prinsiplar, arifmetik amallar.

ANNOTATION

Arithmetic material is the main content of the course. The main core of the elementary course consists of the arithmetic of natural numbers and basic quantities. In addition, the basic concepts of geometry and algebra are integrated into this course. The elementary school mathematics course is an organic part of the school mathematics course. The most basic and age-appropriate elementary concepts of mathematics taught in 1st grades are given.

Key words Primary class, educational process, teaching mathematics, methodology, principles, arithmetic operations.

АННОТАЦИЯ

Арифметический материал является основным содержанием курса. Основное ядро элементарного курса состоит из арифметики натуральных чисел и основных величин. Кроме того, в этот курс интегрированы основные понятия геометрии и алгебры. Курс математики для начальной школы является органической частью школьного курса математики. Приведены самые основные и соответствующие возрасту элементарные понятия математики, преподаваемые в 1-х классах.

Ключевые слова Начальный класс, учебный процесс, обучение математике, методика, принципы, арифметические действия.

KIRISH

Matematikaning asosiy tushunchalari natural son, arifmetik amallar, to'g'ri chiziq kesmasining va bu, aylana kabi geometrik tushunchalar insoniyat tarixining ilk davridayoq paydo bolgan. Matematika fanining vujudga kelishi va rivojlanishi

bevosita amaliy ehtiyojdan-narsalarni sanash, xojalik hisob kitobi, masofalarni olchash, buyumlarning shaklini belgilash, quyosh va yulduzlar vaziyatiga qarab dunyo tomonlarini aniqlash kabi tirikchilik uchun zarur masalalardan kelib chiqqan. Dehqonchilik, me'morchilik inshootlari qurilishi, dengizga suzish taraqqiy etishi bilan matematik bilimlarning ahamiyati ham ortib borgan.

Matematika yoshlarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini ostiruvchi vosita sifatida maktablarda qadimgi Yunonistonda o'qitila boshlangan, sof fan tarzida ham rivojlantirilib, geometriyada aksiomatik metod ishlab chiqilgan.

METODOLOGIYA

Birinchi sinf o'quvchilariga yig'indi bilan qo'shiluvchi orasidagi bog'lanishni tushuntirish uchun bolalarni xulosaga induktiv yo'l bilan olib kelamiz. Ko'rsatmalilikdan (har xil darchalardan) foydalanib, oldin hamma doirachalar qanchaligi topiladi. ($1 + 2 = 3$) Shundan keyin 1 ta qizil doiracha (birinchi qo'shiluvchini ifodalovchi) surib qo'yiladi, bunda bolalar 2 ta ko'k doiracha ya'ni ikkinchi qo'shiluvchi qolishiga ishonch hosil qilishadi. ($3 - 2 = 1$) Shundan keyin 3 ta doirachadan 2 ta ko'k doiracha (ikkinchi qo'shiluvchini ifodalovchi) ayirilsa, 1 ta qizil doiracha, ya'ni birinchi qo'shiluvchi qolishiga ishonch hosil qiladilar ($3 - 1 = 2$). Shundan keyin boshqa sonlar hamda boshqa ko'rsatmali materiallar bilan bir qatorda shunday mashqlar bajariladi va bolalarning o'zlari ushbu umumiy xulosani ifodalashadi: agar birinchi qo'shiluvchi ayirilsa, ikkinchi qo'shiluvchi qoladi, agar yig'indidan ikkinchi qushiluvchi ayirilsa, birinchi qo'shiluvchi qoladi. Bolalar tomonidan induktiv yo'l bilan chiqarilgan xulosa 5,6,7,8,9 sonlarini ayirish qaralayotganda deduktiv mulohazalar yuritish uchun foydalaniladi. Analogiya – shunday xulosaki, bunda predmetlar ba'zi belgilarining o'xshashligi bo'yicha bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash, degan taxminiy xulosa chiqariladi. Analogiya “xususiyan xususiya boradigan”, bir konkret faktdan boshqa konkret faktlarga boradigan xulosadir. Masalan, uch xonali sonlarni qo'shish va ayirishning yozma usullarini ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirishga o'tkazish analogiyani qo'llanishga asoslangan. Shu maqsadda metodik adabiyotlarda ko'p xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish bilan tanishtirishda shunday misollarni yechish tavsiya qilinadiki, bunda har bir navbatdagi misol oldingisini o'z ichiga oladi. Bunday misollarni yechgandan keyin o'quvchilarning o'zlari ko'p xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish uch xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirishdek bajariladi, deb xulosa chiqaradilar.

MUHOKAMA

Yuqorida qaralgan metodlardan (induksiya, deduktsiya, analogiya) foydalanish asosida aqliy operatsiyalar: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraktsiyalash yotadi. Butunni uning tashkil etuvchi qismlariga ajratishga yo'naltirilgan fikrlash (tafakkur) usuli analiz deb ataladi. Predmetlar yoki hodisalar

orasida bog'lanishlarni o'rnatishga yo'naltirilgan tafakkur usuli sintez deb ataladi. 100 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor, degan savolga javob berishda o'quvchilar sonni analiz qilishadi. Taqqoslash usuli qaralayotgan sonlar, arifmetik misollar, masalalarning o'xshash va farqli alomatlarini ajratishdan iborat. Bunda takliflar to'rtburchaklar sonini sanash usuliga oid bo'lib, ularning sonini to'g'ridan – to'g'ri aytish talab qilinmaydi. Bunda turli takliflar bildirish mumkin. Eng maqbuli avval 1 katakli, keyin 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 katakdan tuzilgan to'rtburchaklar sonini sanashni taklif qilish mumkin.

Yoki biror ifoda qiymatini qulay usulda hisoblash yuzasidan takliflar yig'iladi. Masalan: 1 dan 20 gacha bo'lgan barcha natural sonlar yig'indisini topish yo'li so'raladi. Hamma takliflar qabul qilinadi. Ularning bir nechtasi bo'yicha yig'indi topiladi va usullar taqqoslanadi. Eng qulay usulni taklif qilgan guruh yoki juftlik taqdirlanadi.

Darsda berilgan masala, misol va topshiriqni juft bo'lib hal qilishi ham o'quvchilarni o'zaro fikr almashishga, bir – birini to'ldirishi, kerak bo'lsa bir – biriga o'rgatishga o'rgatadi. Bunday usulni "Juftlikda ishlash" deb ataladi. O'qituvchi o'quvchilar mustaqil hal qilishi mumkin bo'lgan istalgan vazifani juftlikda topshiradi. Bunday topshiriqni ijodiy harekterda bo'lishi maqsadga muvofiqroqdir.

NATIJA

O'quvchilarda og'zaki va yozma ko'nikmalarni tarkib toptirish matematika dasturining asosiy yo'nalishlardan biridir. Arifmetik amallarni o'rganishdan oldin bolalar ongiga uning ma'nosini, mazmunini yetkazish kerak. Bu vazifa turli xil amaliy ishlarni bajarish asosida o'tkaziladi. U: "o'nlik" mavzusini qo'shish va ayirish amallarining ma'nosi ikki to'plam elementlarini birlashtirish va to'plamdan uning qismlarini ajratish kabi amallar yordamida olib boriladi. Ko'paytirishni uning komponentlari bilan natijasi orasidagi bog'lanishlarni o'rganish asos bo'lib hizmat qiladi.

Demak, o'qitishning 1-bosqichida abstrakt bo'lgan narsa navbatdagi bosqichda yanada abstraktroq bilimlarni shakllantirish uchun aniq asos bo'lib hizmat qiladi.

Turli hisoblash usullarining o'zlashtirilishi uchun dasturda arifmetik amallarining ba'zi muhim xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1-sinflarda arifmetik amallarni o'rgatish orqali matematikani fundamentini yaratamiz.

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursga geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi. Boshlang'ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo'lib

hisoblanadi. 1 -sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o'qitiladi. Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Axmedov M. .Abduraxmonova N.Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi.)Toshkent. "Sharq" 2015 yil., 160 bet
- 2.Burxonov S va boshhalar. To'rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi" 2014 yil
- 3.Axmedov M. .Abduraxmonova N.Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma.)Toshkent. "Uzinkomsentr" 2015 yil., 96 bet.
- 4.Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab boshlanqich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) Toshkent. "O'qituvchi" 2016 yil.